

ЎЗБЕК МУМТОЗ  
АДАБИЁТИНИ  
ЎРГАНИШДА ЯНГИЧА  
ЁНДАШУВЛАР

ИЛМИЙ ЙИГИН ЁЗМАЛАРИ



Филология фанлари доктори, профессор

**БОҶИЖОН ТЎХЛИЕВНИНГ**

70 ёшига бағишланади



Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy ijodini boshqa ijodkorlar faoliyati bilan qiyoslab o‘rganish o‘quvchilar tafakkurini boyitadi, buyuk bobokalonimiz shaxsiyati barcha ijodkorlar uchun namuna maktabini o‘tashini his qiladi. Alisher Navoiy she‘riyatining ta‘siri sezilib turgan go‘zal tashbehlarni o‘qiganda esa sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning naqadar noyob iste‘dod sohibi bo‘lganligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Ikki zabardast ijodkor asarlarini qiyoslab tadqiq qilishimiz yosh avlodning o‘zbek mumtoz adabiyotini tushunishiga ko‘makdosh bo‘ladi deb hisoblaymiz. Biz, ustozlar, kelajak avlodga Alisher Navoiyning buyuk asarlari mohiyatini yetkaza bilishimiz uchun ko‘plab o‘rganish usullarini qo‘llay bilishimiz zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hasanov, B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. Toshkent: Fan, 1993.
2. Navoiy, A. Badoye‘ ul-vasat. MAT. 20 jildlik, 5-jild. Toshkent: Fan, 1990.
3. Navoiy, A. Farhod va Shirin. MAT. 20 jildlik, 8-jild. Toshkent: Fan, 1991.
4. Navoiy, A. G‘aroyib us-sig‘ar. MAT. 20 jildlik, 3-jild. Toshkent: Fan, 1988.
5. Navoiy, A. Hikmatli so‘zlar. Toshkent, 1985.
6. Olim, S. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilari uchun. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2019.
7. Sirojiddinov, Sh. va boshqalar. Navoiyshunoslik. Darslik. Toshkent: Tamaddun, 2019.
8. To‘xliyev, B. va boshqalar. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Albom. Toshkent: Bayoz, 2013.
9. Vohidov, E. Ishq savdosi. TAT. 4 jildlik, 1-jild. Toshkent: Sharq, 2000.
10. Yo‘ldoshev, Q. Qiyoslash – tahlil samaradorligini oshirish usuli// Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU “Global ta‘lim va milliy metodika taraqqiyoti” IV an‘anaviy Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2020-yil, 6-may.
11. Yusupova, D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Toshkent: Ta‘lim-media, 2019.
12. Yo‘ldoshev, Q. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun. Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

#### **MAQOLLARNING SHE‘RIYATDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI**

**Saodat Abduraximovna,**

*Buxoro davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

Oddiy folklorizm she‘riyat badiiyatida o‘ziga xos o‘ringa ega. Ayniqsa, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy asarlari tarkibida keltirilgan maqollarning har biri o‘ziga xos poetik vazifa bajarganini ta‘kidlash joiz:

Bo‘ldi bag‘rim suv g‘amingdin “Yaxshilik qil, sol su(v)g‘a”

Oxir ey gul xirmani albatta, “har ekkan o‘rar”.

Atoiyning ushbu bayti “irsoli masalayn” (bir baytda ikki maqol keltirish) san‘atiga asoslangan bo‘lib, birinchi baytda “Yaxshilik qil suvga sol, baliq bilar,

baliq bilmasa xoliq bilar”, ikkinchi baytida esa “Har kim ekkanini o‘radi” maqoli keltirilgan va ushbu maqollar shoirning poetik maqsadiga mos tushgan.

Lutfiyning irsoli masal san’ati asosida yaratilgan quyidagi g‘azalining barcha baytlarida maqol ishlatilganini ko‘ramiz:

Ayoqingg‘a tushar har lahza gesu,  
Masaldurkim: “Charog‘ tubi qorong‘u”.  
Tutarmen ko‘zki, ko‘rsam orazingni,  
Ki derlar: “Oqqan ariqqa oqar su(v).  
Yuzungni tuttim ortuq oyu kundin,  
“Kishining ko‘zidir, ore, tarozu”.  
Ko‘zung qonimdin iymalmas, ajabtur, -  
Ki: “Qo‘rqar qaydakim qon ko‘rsa hindu”.  
Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat,  
Ki ayturlar : “Tilaganni tilagu”.

G‘azalning har bir baytidagi ikkinchi misra oldingi misradagi fikr bilan bog‘liq bo‘lgan, uni ta’kidlash, tasdiqlashga xizmat qiluvchi maqol keltirilgan. Bu esa g‘azalning badiiyligini yanada oshirgan.

Hazrat Navoiy folklordan eng ko‘p va samarali foydalana olgan mohir adibdir. Bu haqda ilk bor fikr yuritgan olimlardan biri Maqsud Shayxzoda “bu sohada Navoiy shu qadar ustalik ko‘rsatganki, birmuncha maqollarning xalqdan Navoiyga yo Navoiydan xalqqa o‘tganini aniqlash hozircha qiyin”, – deydi<sup>49</sup>. Atoqli navoiyshunos olim N.Mallaev “Alisher Navoiy xalq maqollari, matallari va iboralariga katta e’tibor berdi, ularni aynan yoki she’rning poetik talabi bilan qayta ishlab o‘z asarlarida qo‘lladi va shularga monand yangi hikmatli so‘z hamda iboralar ijod etdi. Bularni o‘rganish va tadqiq qilish Navoiy asarlarining g‘oyaviy mazmunini ham, badiiy formasini ham yoritishda katta ahamiyatga ega”<sup>50</sup>, – deganida haq edi. Shoirning birgina g‘azaliyoti ham oddiy folklorizmga boy.

Yetti jon og‘zimgakim, chiqmas uyidinkim ul hur,  
Chiqmagan jondin umid – ushbu masaldur mashhur<sup>51</sup>.  
Ey, ko‘ngul, ishq ichra yo‘q shoh-u gadog‘a imtiyoz:  
O‘t aro tengdur quruq yo ho‘l yog‘ochning xirqati<sup>52</sup>.  
Ko‘ngilni tuz, tilisang foyiz o‘lsa tuz ma’ni,  
Nedinki egri ko‘rguzur ko‘zgu<sup>53</sup>.

---

<sup>49</sup>Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 24.

<sup>50</sup> Шу манба. – Б.34.

<sup>51</sup> Шу манба. – Б.34.

<sup>52</sup> Шу манба. – Б.34.

<sup>53</sup> Шу манба. – Б.34.

A.Navoiyning ushbu baytlarida “Chiqmagan jondan umid”, “O‘t ketsa hulu quruq teng yonadi”, “Ko‘zgu borini ko‘rsatadi” maqollari qo‘llangan bo‘lib, g‘azallarning badiiyligini ta‘minlagan.

“O‘t” radifli g‘azalida:

May batining ko‘r nishot afzoling‘in huzn ahlig‘a  
Kim, kuyar o‘lu qurug‘ chun naysitong‘a tushti o‘t<sup>54</sup>.

Bu baytda “Qamishzorga o‘t ketsa, ho‘lu quruq barobar yonadi” maqoli qo‘llangan. Shoir hajr shomida g‘am sipohiylari lirik qahramon ko‘ngliga olov yoqqanini aytib, she‘r syujetida tugun hosil qiladi. Yechimda shoir “ohi otashbori” o‘t bo‘lib bulutga urganini, ko‘k tutunga o‘xshab qolganini ta‘kidlaydi. Ho‘lu quruq barobar yonsagina, ko‘kni tutun qoplaydi. G‘uluv, tashbeh kabi san‘atlarning yuzaga kelishi uchun ham oddiy folklorizm ahamiyat kasb etgan, demak, g‘azal badiiyatini oshirgan. Ayni damda, oddiy folklorizm maqta‘dan oldingi bayt tarkibida yuzaga kelib, yechimga poydevor vazifasini o‘tagan. Xuddi shu maqol “Tushti o‘t” radifli g‘azalida aynan shu shaklda keltiriladi:

O‘qlaring ko‘ngling‘a tushqach, kuydi ham ko‘z, ham badan  
Kim, kuyar o‘lu qurug‘ chun naysitong‘a tushti o‘t<sup>55</sup>.

Ikki g‘azalda ham ma‘shuqa sabab oshiq ishq olovida yongani aytiladi, ammo bir xil maqolning qo‘llanish maqsadi turlicha. Keyingi g‘azalda ko‘k tutunga aylangani emas, ufq, butun osmonga o‘t tushgani tasvir etiladi. Oddiy folklorizm esa o‘zi mansub baytnigina izohlagan. Yor o‘qlari ko‘ngilga tushganida ko‘z ham, badan ham, demakki, ho‘lu quruq barobar yondi. Tanosib san‘ati aynan oddiy folklorizm tufayli yuzaga kelgan. Ma‘lumki, qamishzor suv ichida bo‘ladi. O‘t ketganida ko‘zu (bu o‘rinda ko‘z – suv, kipriklar – qamishzor, deyish ham mumkin) badan yongani nayistonga o‘t ketgani kabi ekani ko‘rsatilgan. Aynan bir maqol vazn, qofiya va radif sabab ikki g‘azalda bir xil shaklda takror keltirilgan. Ammo oddiy folklorizm g‘azal kompozitsiyasida bir xil vazifani bajarmagani, shoir maqsadining ikki xil jihatini oydinlashtirgani ko‘rinib turibdi. Ko‘rinadiki, oddiy folklorizmning she‘riyatda, ayniqsa, aruz vaznidagi she‘riyatda keltirilishi mohirlik talab qiladi. Bu borada hazratning mahoratlari hayratangizdir.

Ishqing o‘tinki, yoshurdim, el aro yoydi raqib,  
Kim isitmani nihon tutsa qilur marg ayon<sup>56</sup>.

---

<sup>54</sup>Алишер Навоий. Топмадим. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 96.

<sup>55</sup>Алишер Навоий. МАТ. Учинчи том. Фаройиб ус-сиғар. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 89.

<sup>56</sup>Алишер Навоий. МАТ. Олтинчи том. Фавойид ул-кибар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 370.

Navoiy “Kasalini yashirsang, isitmasi oshkor qiladi” xalq maqolini o‘zlashtirar ekan, ijodiy davom ettirgan. Natijada, “Kasalini yashirsang, isitma, isitmani yashirsang, o‘lim oshkor qiladi” tarzidagi ifoda hosil bo‘lgan. Isitmaning me’yordan juda oshib ketishi o‘limga olib kelishi mumkinligi shoirga xalq maqolini yangicha, kuchaytirilgan, to‘ldirilgan shaklda ifodalash imkonini bergan. Shoir “Favoyid ul-kibar” devonidagi “Ishq aynidin ko‘zumni qilmadi yoruq jahon” deb boshlanuvchi g‘azalida “It hurar – karvon o‘tar” maqolini qo‘llaydi:

Boribon ahbobu men g‘aflat asiri bo‘lmag‘im,  
Uyladurkim, it uyub qoldiyu ko‘chti korvon<sup>57</sup>.

Alisher Navoiy lirik qahramonga itlarning hurishiga e‘tibor qilib yo‘ldan qolsa, keksalikda ohu fig‘on chekishini uqtiradi. Bu yerda gap itning hurishi haqida emas, uning uxlab qolgani haqida bormoqda.

Muhammadsharif Gulxaniyning adabiy-tarixiy xizmatlari beqiyos. U o‘zbek xalq maqollarining o‘zi yashagan davrdagi holatini aniq qayd qiladi. Bu qaydlar yetuk folklorshunos olimning kuzatuv va qaydlaridan farq qilmaydi. Muhimi, adib har bir maqolning “yashash joyi” bilan birga ko‘rsatadi: uning qo‘llanish manzili, vaqti, maqsadi va vazifalarini ham ko‘p hollarda ko‘rsatib o‘tadi. Agar Gulxaniyning Qo‘qon adabiy muhitida kamol topgani, XVIII asrning so‘nggi choragi va XIX asrning birinchi yarmida yashagani taxmin qilinsa, boshqa ma‘lumotlarning nihoyatda ozligini e‘trof etishga to‘g‘ri keladi.

Shunga qaramay, u o‘zbek adabiyoti tarixida o‘zidan sezilarli iz – jiddiy adabiy meros qoldirdi. Mana shu merosning o‘zi uning adabiyot tarixi uchun benazir yodgorlik qoldirganini, bu yodgorlikning o‘zbek nasri tarixi uchun, umumo‘zbek adabiyotining tarixiy ravnaqi uchun ham muhim va benazir manba ekanini tasdiqlab turadi.

Gulxaniy o‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan, ya’ni u har ikki tilni ham mukammal darajada bilgan. Uning mazkur bilimi maqollarni to‘plash va ulardan foydalanish jarayonida ham o‘zini ko‘rsatib turadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodirova, S. (2023). Мақол ва матал жанрининг ёзма шеърятдаги ўрни. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 30(30).
2. Qodirova, S. (2024). “Zarbulmasal” nashri va maqol matni muammolari. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 45(45).
3. Saodat, K. (2022). “Zarbulmasal” is a Work with a Complex Plot. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, 6(6), 1551-1555.
4. Qodirova, S. (2022). Мақолларни тўplash ва улардан фойдаланиш жараёни. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 24(24).

---

<sup>57</sup>Алишер Навоий. МАТ. Олтинчи том. Фавойид ул-кибар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 334.

5. Abdurahimovna, Q.S. (2022). "Zarbulmasal"–maqsadni majoz yoli bilan ifodalashga qaratilgan hikoyat. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(4), 363-365.
6. Abduraximovna, Q.S. (2022). "Zarbulmasal" asarining goyaviy va badiiy ahamiyati. *Scientific Impulse*, 1(5), 706-711.
7. Abdurakhimovna, K.S. Idealistic study of proverbs in "Zarbulmasal" of Gulkhani. *Scientific reports of bukhara state university*, 170.
8. Қодирова, С. А. (2023). Мақол ва матал жанрининг шеърятдаги ўрни ва аҳамияти. *Science and Education*, 4(2), 1667-1671.
9. Abdurakhimovna, K. S. (2022). Main Subject way of" Zarbulmasal". *European journal of innovation in nonformal education*, 2(2), 286-290.
10. Qodirova, S. (2023). "Devonu lug'otit turk" va "zarbulmasal" asarlarida qo'llanilgan maqollarning qiyosiy-tipologik tahlili. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 29(29).
11. Қодирова, С., & Одилова, М. (2021). Қадимий мақоллар таснифи. *Scientific progress*, 2(6), 1036-1040.
12. Abduraximovna, Q. S., Muhabbat, O., & Sevara, F. (2022). "Zarbulmasal" asaridagi bosh goya. *Theory and analytical aspects of recent research*, 1(9), 76-79.
13. Kodirova, S.A. (2020). Ideological and artistic features of «Zarbulmasal». *Theoretical & Applied Science*, 10, 318-320.
14. Abdurakhimovna, K. S. (2022). Poetics of Proverbs. *European journal of innovation in nonformal education*, 2(2), 303-307.
15. BuxDU katta oqituvchisi, S.Q. (2022). "Zarbulmasal"–nasriy hikoyachilik asosiga qurilgan badia. *Pedagogs jurnali*, 1(1), 455-457.
16. Kodirova, S.A. (2021). Idealistic study of proverbs in "zarbulmasal" of gulkhani. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(1), 170-179.
17. Qodirova, S. (2022). Бошланғич синфларда масал жанрини ўрганишда "Зарбулмасал"нинг ўрни ва аҳамияти. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 24(24).
18. Qodirova, S. (2022). qadimiy maqollar. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 24(24).

## **АЛИШЕР НАВОИЙ ШЕЪРИЯТИДА МУҒАННИЙ ОБРАЗИ**

**Алишер Раззоқов,**  
Тошкенгт давлат Ўзбек тили ва  
адабиёти университети докторанти,  
филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Маълумки, Алишер Навоий ҳаётлик пайтидаги Темурийлар салтанатининг пойтахти Ҳирот тамаддун марказларидан бири эди. Унда бир томондан адабиёт, санъатнинг бир қанча соҳалари, илм-фан гуллаб-яшнаган бўлса, яна бир томондан ислом динининг руҳий-маънавий ҳаёти бўлган тасаввуф таълимоти, хусусан, унинг нақшбандия тариқати ўша давр маънавий ҳаётининг ажралмас қисмига айланган эди. Бу тамаддун ўчоғининг ривожиди, албатта, Алишер Навоий саъй-ҳаракатларининг ўрни бекиёсдир. Ҳазрат Навоий бу соҳаларнинг гуллаб-яшнашига ҳомийлик қилибгина қолмасдан, унинг назмий ва насрий асарларида ҳам амалий санъатнинг, жумладан мусиқа ва унга боғлиқ тушунчаларнинг ўзига хос

Муҳиббек Рустамий, Салимахон Рустамий. Алийшер Навоийнинг “Маҳбубу-л-қулуб” асарида инсоний фазилатлар баёни .....	158
З.Х.Ульмасова, З.С.Хусейнова. Вклад Абдурахмана Джами и Алишера Навои в развитии таджикско-узбекской литературы .....	162
Фаридаҳон Каримова. Дебочаларнинг шаклий-поэтик турлари хусусида .....	167
Олимжон Абдуллоев. Амир Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» достонида Амир Хусрав Дехлавийнинг «Мажнун ва Лайли» достони аънаналари .....	172
Тозагул Матёкубова. Тафаккур кенглиги ва тахайюл юксаклиги .....	177
Бахтиёр Файзуллоев. Мумтоз адабиёт тадқиқотчиси .....	182
Аҳаджон Муҳаммадиев. Муҳйи ва унинг замондошлари ижодида тарихий воқеаларнинг бадиий талқини .....	189
Мўминжон Сулаймонов. Ҳофиз Хоразмий ҳикматлари .....	197
Ozoda Tojiboyeva. G‘azalda mavzu va tasvir uyg‘unligi .....	201
Обиджон Каримов, Дурдона Дадажоновна. Абдулла Орипов – моҳир таржимон .....	205
Obitjon Karimov. Oliy ta‘lim tizimida darsliklarning yangi avlodi .....	209
Ozodaxon Boltaboyeva. Xilvatiy Namangoniy ishqiyy lirikasida poetik tasvir: an‘ana va o‘ziga xoslik .....	215
Iroda Ishonxanova. Buyuk bobokalonimiz hayoti va ijodini qiyoslash usulida o‘rganish	
Saodat Abduraximovna. Maqollarning she‘riyatdagi o‘rni va ahamiyati .....	219
Алишер Раззоқов. Алишер Навоий шеърлятида муғаний образи .....	229
N.Saydaxmedova. Muhammad Yusuf tarjimaiy holini o‘rganish tajribasidan .....	236
Саидмурод Холбеков. “Қаъб ул-аҳбор ҳикоялари” агиографик асарининг генезиси	242
Mahmuda Otaxanova. Ma‘shuqa timsoli uzra chustiy chizgilari .....	248
Hulkar Aliqulova. O‘zbek va Qozoq yor-yorlarida poetik voqelik tipologiyasi .....	253
Нигора Худоёрова. “Девони Фоний”да татаббуъллар талқини .....	298
Gulsanam Mashrapova. “O‘zbek xalq sehrli ertaklari tipologik katalogi” haqida .....	267
Илҳом Жумаев. “Қутадғу билиг” асарида қадимий мақоллар талқини .....	271
Jasurbek Ibragimov. “Qutadg‘u bilig” istioralarining poetik o‘ziga xosliklari .....	275
Сурайё Дўстқораева. Алишер Навоий лирикасида “кўз” тимсолининг кўлланиш хусусиятлари .....	282
Шоҳруҳ-Мирзо Жўраев. “Қутадғу билиг” достонининг ўзбек олимлари томонидан ўрганилиши .....	285
Oydin Ametova. Yusuf Xos Hojibning obraz yaratish mahorati .....	291
Ibrohim Ahmadjonov. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida komillik sari yo‘l	296
Gulira‘no Xolmatova. “Munshaot” maktublarida she‘riy shakllarning berilishi .....	299
Mahliyo Rasulova. “Maxzan ul-asror” va “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarning qiyosiy tahlili .....	303
<b>Тилшунослик</b> .....	308
Namidulla Dadaboyev. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-turk” asarida bosh va ich kiyim nomalarining ifodalanishi .....	308
Botir Jafarov. “Kodeks kumanikus” hamda “Tarjumon turkiy” qo‘lyozmalarining til va yozuvga oid umumiy va xususiy holatlar tahlili .....	316
Lutfulla Sindorov. «Hibat ul-haqoyiq» asari semantik strukturasi ma‘no kengayishi va torayishi yuz bergan so‘zlar .....	320
Furqat Nurmanov. Sharq allomalari merosi - tilshunoslik fani shakllanishining poydevori	325
Мадина Жўраева. Ўрта асрларда Мовароуннаҳрда адабий-илмий ҳаёт ва унинг дунё илм фани ривожигаги ўрни .....	330
Шаҳноза Тўлағонова. Қадимги туркий тилдаги стереотип бирликлар услубида қаршилантириш ҳамда ўхшатиш .....	333